



2020 yil avgust oyi holatiga ko'ra

Amaliyot uchun viza olishga kerakli hujjatlar haqida eslatma

Umumiy eslatma:

- Barcha arizachilar arizalarini **shaxsan** topshirishlari shart. **Hujjat topshirish uchun qabulga yozilish faqat internetda, elchixonaning qabulga ro'yxatga olish tizimi orqali amalga oshiriladi**
- Viza arizasi qaror qabul qilish maqsadida **Germaniyadagi xorijliklar masalalari bo'yicha mas'ul idora (Ausländerbehörde)** ga yuboriladi. Shu sababdan yashash ko'zda tutilayotgan, ya'ni ish beruvchingizning **manzil** (ko'cha, pochta indeksi va joy nomi) ariza blankida **to'liq** ko'rsatilishi lozim. Germaniya hududiga kirganingizdan keyin, bu haqda xorijliklar masalalari bo'yicha turar joyingizdagi mas'ul idoraga bevosita xabar qilishingiz lozim. Ushbu idora Germaniyada vaqtincha qolish bo'yicha yakunlovchi qarorni qabul qiladi.
- Arizangiz borasida ijobiy qaror qabul qilinsa, elchixona xodimlari Siz bilan bog'lanadi. Rad javoblari faqat yozma ravishda yuboriladi yoki arizachi tomonidan shaxsan olib ketilishi mumkin
- Tajribaga muvofiq viza arizasini **ko'rib chiqish muddati 4 – 6 haftani** tashkil etadi va ba'zi xollarda muddat farqlanishi mumkin
- **Viza badali 75 yevroni** tashkil etadi va to'lov ariza topshirilayotganda **faqat o'zbek so'mida** (amaldagi kurs bo'yicha) amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart



Ariza topshirish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

Eslatma: arizaga taaluqli hujjatlarning **DIN A4 formatidagi** nusxalarini quyidagi tartibda **sahifalarini biriktirmagan xolda ikkita to'liq to'plamga** ajrating. Uchinchi to'plam huddi shu tartibda, hujjatlarning aslidan iborat bo'lishi lozim. Hujjatlarning asli viza bo'limi tomonidan Sizga qaytariladi.

- Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va imzolangan 2 ta viza ariza blanki hamda 3 dona biometrik fotosurat. (2ta fotosurat ariza blankiga yelimplangan bo'lishi kerak).** Blankni elchixonaning internetdagi www.taschkent.diplo.de web-sahifasidan olishingiz mumkin.
- Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq **imzolangan izoh**
- kamida bir yil amal qilish muddatiga ega bo'lgan pasportingiz** va uning shaxsiy ma'lumotlar kiritilgan sahifasidan nusxa
- Amaliyot shartnomasi** (quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim: ish beruvchi (ish joyining nomi, manzili va mas'ul shaxsning telefon raqami); faoliyat turi: to'liq yoki qisman; yevroda oylik maosh; amaliyot davomiyligi; faoliyat tasnifi.
- Amaliyot rejasi**
- Xorijiy oliy ta'lim muassasasida o'qish davrida, 4-semestrda keyingi majburiy amaliyot bo'lsa: **Bundesagentur für Arbeit (ZAV – Zentrale Auslands- und Fachvermittlung)**ning vositachilik xatining asli hamda oliy o'quv yurtining **majburiy amaliyot haqida ma'lumotnomasi**
- Kasbiy malaka va ta'lim haqida tasdiqnoma**, masalan o'qish joyidan ma'lumotnoma, diplom, shaxodatnoma
- Manzil va bog'lanish manbaalari ko'rsatilgan **ketma ketligi uzilmagan, jadval shaklidagi tarjimai xol**. Agar nemis tilida bo'lmasa, uning tarjimasini ilova qiling
- Nemis tili bo'yicha A1 boshlang'ich bilim darajasi haqida tasdiqnoma** yoki arizachining tilni bilishi viza jarayonida kunlik mavzularning biri haqida suhbat orqali ham tekshirilishi mumkin.
- Tibbiy sug'urta polisi**. Tibbiy sug'urta viza berilishidan oldin olib kelinishi ham mumkin.